

MAKTAB O'QUVCHILARIGA TASVIRIY IFODA MAVZUSINI O'RGATISHDA PEDAGOGIK METODLARDAN FOYDALANISH

Xoshimova Dilorom Davron qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasviriy ifodalar mavzusi va o'quvchilarga ushbu mavzuni o'qitish yo'llari haqida so'z boradi. Jumladan, tasviriy ifodalarning o'quvchilar lug'at boyligini oshirish xususidagi metodik tavsiyalar haqida ma'lumot berilgan. O'qituvchi va talabalar maqoladagi ma'lumotlardan foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: ona tili, metodika, tasviriy ifoda, o'qitish, "Savatdagi savol", "Venn diagrammasi", "Bosqichma-bosqichlik" metodlari

KIRISH

Bugungi kunning dolzarb masalasi sifatida ta'lif sohasidagi o'zgarish va yangiliklarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Masalan, amaldagi darsliklarda mavzular hayot bilan bog'langan holatda o'rgatilishi shular jumlasidandir. Xususan, tasviriy ifoda mavzusi o'quvchilarga lug'at boyligi bilan birgalikda uslubiy bo'yodkorlikni to'g'ri qo'llay olishiga imkon beradi. Shu sababli ona tili darslariga tasviriy ifodani o'qitish bo'yicha yangi usul va metodlardan foydalanish zarur.

Tasviriy ifoda bo'yicha A.Hojiyevning "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati", H.Shamsiddinovning "Tasviriy ifoda va uning ma'no guruhlari" maqolasi, R.Rasulov, I.Umirovning "O'zbek tili tasviriy ifodalarning izohli lug'ati" kabilar ilmiy tadqiqotlar olib borshgan. Bundan tashqari R.Sayfullayeva, D.Yuldasheva, Sh.Rahmatullayevlarning kitoblarida qisqacha ma'lumotlar keltirib o'tgan.

Asosiy qism

Til – bu inson tafakkurining in’ikosidir. U nafaqat axborot yetkazish, balki estetik zavq, badiiy tasvir, emotsiyalohangni ham o‘zida mujassam etadi. Ayniqsa, badiiy adabiyotda yoki so‘z san’atida til vositalari obrazli, chuqur ma’no yuklagan holda ishlatiladi. Ana shunday vositalardan biri — tasviriy ifodalar bo‘lib, ular tilni bezaydi, obrazlarni jonlantiradi, fikrni badiiy shaklda ifodalashga xizmat qiladi.

Tasviriy ifodaning tilshunoslikdagi ilmiy nomi “parafraza” deb yuritiladi. Bu atama yunon tilidagi “paraphrasis” so‘zidan olingan. A.Hojivey o‘zining “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati” kitobida uni ‘Narsa, hodisaning o‘z nomi bilan emas, tasviriy usul bilan ma’lum kontekst, situatsiyadagi xarakterli belgi-xususiyati orqali ifodalaydigan stilistik priyom” [2.67] deya ta’riflaydi. Ya’ni narsa yoki hodisaning ko‘rinishi, tuzilishi yoki biror o‘xhashligi orqali qayta nomlanishi tasviriy ifoda deb ataladi. Masalan, qora oltin – neft va ko‘mir, po‘lat ot – traktor, osmonning ko‘z yoshi – yomg‘ir bularga misol bo‘la oladi.

Ushbu mavzu amaldagi 6-sinf maktab darsligiga kiritilgan. Bu davr o‘smirlilikning boshlanishi, katta hayotga qadam qo‘yish davri bo‘lib, o‘quvchilarda turli xil o‘zgarishlar ro‘y beradi. 6-sinf o‘quvchilari endigina boshlang‘ich ta’lim bosqichidan yuqori sinflarga o‘tganliklarini inobatga olgan holda, ularning yosh xususiyatlari va psixologik holatiga alohida e’tibor qaratish muhim hisoblanadi. Shu bois, mazkur mavzuni ular uchun tushunarli va qiziqarli tarzda o‘rgatish maqsadida turli xil ta’lim metodlaridan samarali foydalanish lozim bo‘ladi. Shunday sharoitda tasviriy ifodaning ta’siri qanday bo‘lishi mumkin? Nega aynan 6-sinfda bolalarga tasviriy ifoda mavzusi taqdim etilmoqda?

Gap shundaki, 6-sinf o‘quvchilari atrof-muhitga o‘zgacha nigoh bilan qaray boshlaydilar. Ular hayotni chuqurroq anglashga intiladilar, har bir so‘z va detallar ular uchun muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi, dunyoqarashi ancha kengayadi. Bu esa ularning o‘smirlilik yoshiga yetganliklaridan dalolat beradi. Ular asta-sekin o‘z hayot yo‘nalishlarini tanlashga kirishadilar. Tasviriy ifodaning 6-sinf darsliklariga kiritilishidan ko‘zlangan asosiy maqsad — shakllanib kelayotgan yosh avlod tafakkurini yanada rivojlantirish, ularni obrazli fikrlashga o‘rgatish hamda dunyoni anglashga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirishdir.


Tasviriy ifodalar nima uchun kerak va ular qanday vazifalarni bajaradi? Avvalo,

tasviriy ifoda orqali bola fikrlay boshlaydi. U o‘z atrofidagi voqealarni qiyoslashni o‘rganadi, tabiatdagi, jamiyatdagi jarayonlarni obrazli tarzda tasavvur qiladi. Shu tariqa, bola tasviriy ifoda vositasida real hayotdagi hodisalarini chuqurroq anglaydi va o‘z nutqini boyitib boradi. Bu esa uning fikrlash doirasi kengayishiga, lug‘at boyligi ortishiga xizmat qiladi.

Mavzuni o‘rgatishda quyidagi metodik tavsiyalar beriladi.

1. **Darsni mavzuga olib kiruvchi savollar bilan boshlash** – kontekstsda, matn, topshiriq va dars davomida mavzuga oid savollar berish lozim. Bu tasviriy ifodalarni mazmunan tushunish va yod olishga yordam beradi.

2. **Ko‘rgazmali misollardan foydalanish** – o‘quvchilar ko‘z ongida mavzuga oid tasavvur uyg‘otish. Bu tasviriy ifodalarni to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantiradi. Masalan:



Kabi tasviriy ifodalarni berib yoki slayd, grafik jadval orqali o‘quvchilarda darsga qiziqish uyg‘otish zarur.

3. **Interaktiv va muhokama metodlari** / Sokratik suhbat (savol-javob orqali anglatish) – Bu usulda o‘quvchikarga ketma-ket savollar berish orqali o‘z fikriga olib keladi.

- Masalan: Dala malikasi qaysi o‘simlik?
- Dalada ko‘proq qaysi o‘simlik yetishtiriladi?
- Malikadek ko‘rinishga ega bo‘lgani qaysi?
- Nima sababdan dala malikasi deb atalgan deb o‘ylaysiz?

4. **“Guruhlarda fikr almashish” usuli** – O‘quvchilar kichik guruhda yangi tushuncha yoki misollar ustida ishlaydi, so‘ng sinfga taqdimot qiladi. Bu orqali o‘quvchilar ko‘plab yangidan-yangi tasviriy ifodalarni o‘rganishadi.

Mazkur mavzuning mohiyatini o‘quvchilarga to‘liq yetkazish va ularni chuqur tushunishga yo‘naltirish maqsadida zamonaviy o‘qitish metodlaridan foydalanish zarur. Xususan, quyidagi metodlar shular jumlasidandir:

1. **Savatdagi savol metodi** – bu metodda har bir o‘quvchi o‘zida tug‘ilgan savolni yozib savatga soladi. O‘qituvchi savollarni navbat bilan o‘qib, muhokama qiladi. Bu tasviriy ifodalarga oid bo‘lgan bir qancha savollarning javobi topilishiga ko‘maklashadi.

2. **Fikrlash kartasi metodi** - bu metodda markaziy mavzu yoziladi, atrofida bog‘liq fikrlar tarmoqlanadi. Bu metod tasviriy ifodalarni boshqa mavzular bilan integratsiya qilishga yordamlashadi.

3. **Venn diagrammasi** - bu metodda ikki yoki undan ortiq tushunchani qiyoslab, o‘xshash va farqli jihatlari aniqlanadi. Masalan qora oltin - ko‘mir, neft tasviriy ifodasini oladigan bo‘ladigan bo‘lsak, o‘xshashligi - qora rangda ekanligi, farqli jihat - oltin emasligida. Bu metod orqali o‘quvchi tasviriy ifodani yanada chuqurroq o‘rganadi va unda bu mavzuga oid ko‘nikma paydo bo‘ladi.

4. **Solishtirish metodi** - bunda o‘qituvchi ikkita so‘z berib qaysi biri tasviriy ifoda ekanligini topishi kerak. Masalan, kumush choyshab, gulli choyshab qaysi biri tasviriy ifoda? kabi savollar bilan o‘quvchilarni solishtirib o‘rganishga o‘rgatish. Bu metod tasviriy ifodalarni badiiy tasvirdan ajrata olish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

5. **Integratsiya qilish metodi** – bu usulda tasviriy ifodalarni ona tilidagi boshqa bir mavzu bilan integratsiya qilish orqali o‘rgatilish mumkin. Misol uchun, filologiya fanlar doktori, professor Yorqinjon Odilov o‘zining maqolasida quyidagi jadvalni beradi:[4]

aql gimnastikasi I	shaxmat
aql gimnastikasi II	matematika
qora oltin I	neft

qora oltin II	ko‘mir
samo lochini I	burgut
samo lochini II	uchuvchi
asr vabosi I	giyohvandlik
asr vabosi II	OITS

Ushbu jadval orqali o‘quvchilarga tasviriy ifoda va omonimlar mavzusini integratsiya qilish orqali tushuntirib berish mumkin.

6. **Rasmlar orqali tasviriy ifodani toping metodi** - ushbu metodda rasmlar orqali tasviriy ifoda beriladi, o‘quvchilar uni qaysi ekanligini topishadi. Bu metod o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantiradi, tez va aniq javob berishga undaydi.



7. **Bosqichma-bosqichlik metodi** - bunda avval oson tasviriy ifodalar o‘rgatiladi, keyin ketma-ketlikda qiyinlik darajasini oshirib borilaveradi. Masalan,

1. *Ilm o‘chog‘i - maktab*
2. *Hayvonlar shohi - sher*
3. *Bahor elchisi - qaldirg‘och*
4. *Mo‘yqalam sohiblari - rassomlar*
5. *Dala malikasi - makkajo‘xori*
6. *O‘rmon malikasi - archa kabi misollar orqali.*

8. **Teskari hikoya metodi** - bunda o‘qituvchilar gapni avval yakundan boshlaydi, o‘quvchilar gapning boshiga mantiqan to‘g‘ri tasviriy ifodani topib qo‘yishadi. Misol uchun, bizni turli xil kasallikkardan himoya qilishadi.

9. **Insert usuli** – bu usulda tasviriy ifodani tahlil qilish, tushunilgan va tushunilmagan joylarini ajratib qo‘yish zarur. Misol uchun:..

- ◆ “+” bilganim
- ◆ . “-“ qarama-qarshi fikr
- ◆ . “?” tushunmagan joyim
- ◆ . “!” hayratda qoldirgan joyi

Usullardan foydalanib o‘quvchini tahliliy fikrlashini rivojlantirish mumkin.

10. Qop-quti metodi - dars oxirida o‘quvchilar yozgan kartochkalarni:

- “Tushundim” qutisiga
- “Yarim tushundim” qutisiga
- “Tushunmadim” qutisiga solishadi. Shu oraqali o‘quvchilar mavzuni qanchalik yaxshi tushunishganliklarini bilib olishimiz mumkin.

Shu kabi interfaol metodlardan foydalanib, 324-maktabning 6 -“E” sinfi bilan ochiq dars o‘tkazdik. Ochiq darsda 26 nafar o‘quvchi faol ishtirok etdi. Ochiq dars mavzusi: “Tasvirli til - ta’sirli fikr” bo‘ldi. Dars mavzuni tushuntirish bilan boshlandi. Unda darslikdagi qoida va topshiriqlar ko‘rib chiqildi hamda o‘quvchilar bilan birgalikda bajarildi. Navbat o‘quvchilar bilimlarini mutahkamlashga keldi.

Birinchi metod, “Savatga savol metodi”, dastlab savatcha olib o‘quvchilarga tomon olib bordik. O‘quvchilar mavzu haqidagi o‘zlarini qiziqtirgan savollarni kartochkaga yozib savatga solishdi, keyin ketma-ketlikda har bir savolga javob berildi.

Ikkinchi metod, “Rasmlar orqali tasviriy ifodani toping metodi” qo‘llandi, o‘quvchilar uch guruhgaga bo‘linishdi. Har bir guruh o‘zlariga nom tanlab olishdi. Guruhlar nomlari ham tasviriy ifoda orqali ifodalandi, birinchi guruh “Bahor elchilari”, ikkinchi guruh “Bilim bulog‘i oshnolari”, uchunchi guruh “Bo‘lajak samo lochinlari” deb nomlashdi. So‘ngra avvaldan tayyorlab qo‘yilgan tarqatma materiallar har bir guruhlarga yetkazildi. O‘yin sharti shunday: har bir guruh qo‘lidagi tarqatma materiallardagi tasviriy ifodalarni topishad. Kim

birinchi va to‘g‘ri topan bo‘lsa o‘sha jamoa g‘olib hisoblanadi. O‘yin vaqtini 5 daqiqa etib belgiladik va jamoalar muhokama qilishni boshladilar. Vaqt tugashidan avval “Bo‘lajak samoа lochinlari” jamoasi birinchi va to‘g‘ri olib kelganliklari sababli g‘olib deb elon qilindi. G‘oliblar estalik sovg‘alari bilan taqdirlandi. Eng oxirida esa uchinchi metod, ya’ni “Qop-puti metodi” ni qo‘lladik. Dars oxirida o‘quvchilar yozgan karochkalarini

- “Tushundim” qutisiga
- “Yarim tushundim” qutisiga
- “Tushunmadim” qutisiga solishadi.

Va natijada 75% o‘quvchi tushunganini, 17% o‘quvchi yarim tushunganini, 8% foiz o‘quvchi tushunmaganini yozgan ekan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bugungi ta’limni zamonaviy metodlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘quvchilarning ongi va dunyoqarashini rivojlantirishda faol o‘qitish usullari o‘qituvchi uchun samarali vositalardan biridir. Ayniqsa, “Tasviriy ifoda” kabi mavzularni o‘quvchilar uchun qiziqarli va ta’sirchan tarzda o‘rgatish uchun turli metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Qisqacha aytganda, metodlar bugungi ta’lim jarayonining ajralmas va muhim bo‘lagiga aylangan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Erkaboyeva N. O‘zbek tilidan ma’ruzlar to‘plami. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
2. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. — Toshkent: O‘qituvchi, 1985. — 67 b.
3. Muxtorov J., Tursunov U., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992. — 81 b.
4. Odilov Y. Tasviriy ifodalar va ularning uslubiy xususiyatlari. // Til va adabiyot ta’limi jurnali, 2023, №5.

5. Rasulov R., Umirov I. O‘zbek tili tasviriy ifodalarning izohli lug‘ati. — Toshkent: O‘qituvchi, 1997.
6. Ona tili: 6-sinf darsligi. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2022. — B. 74–95.